

STRATEGIK YONDASHUV ASOSIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Mo'minova Muxayyo Usmanovna

Tadqiqotchi

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim muassasalarida o'zaro shaxsiy munosabatlarni, rahbarlik munosabatlarini tahlil qilish va tartibga solish, ta'lim tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, pedagogik xodimlarga bo'lgan ehtiyojlarni tahlil qilish, pedagogik xodimlarning kasbiy va ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish va ta'lim tizimini boshqaruv jarayoniga yangicha yondashuvlarni tatbiq etish borasida o'ziga xos talablarni belgilab berdi.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha belgilanayotgan talablar ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o'zgartirish, takomillashtirishni, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri bo'lib, ta'lim muassasalarida boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlari sub'ektlarining faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yondashuvlarni aniqlash va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi.

Kalit so'zlar: rahbar, mas'ul, shaxs, maktab, ta'lim, imkon, muassasa, tizim, muammo, strategiya, qaror, jarayon, amaliyot.

Аннотация: Реформы в системе образования, реализуемые в нашей стране, включают анализ и регулирование личных взаимоотношений и отношений руководства в образовательных учреждениях, обеспечение системы образования современными информационными технологиями, анализ потребностей педагогических кадров, профессиональное развитие педагогических кадров и социально-психологическую адаптацию, повышение квалификации и переподготовки, совершенствование системы управления общесредними образовательными учреждениями и внедрение новых подходов к процессу управления системой образования.

Предъявляемые в этих сферах, требуют изменения и совершенствования механизмов управления системой образования, формирования системы управления, основанной на демократических принципах. Это одно из самых основных требований современности и определяет задачи выявления и реализации подходов, служащих совершенствованию деятельности субъектов процессов управления в образовательных учреждениях и сотрудничества.

Ключевые слова: лидер, ответственный, человек, школа, образование, возможность, управление, система, проблема, стратегия, решение, процесс, практика.

Abstract: The reforms in the education system implemented in our country include the analysis and regulation of personal relationships and management relations in educational institutions, providing the education system with modern information technologies, analyzing the needs of teaching staff, professional development of teaching staff and socio-psychological adaptation, advanced training and retraining, improving the management system of general secondary educational institutions and introducing new approaches to the process of managing the education system.

Presented in these areas, require changes and improvements in the mechanisms for managing the education system, the formation of a management system based on democratic principles. This is one of the

most basic requirements of our time and determines the tasks of identifying and implementing approaches that serve to improve the activities of subjects of management processes in educational institutions and cooperation.

Key words: *leader, responsible, person, school, education, opportunity, management, system, problem, strategy, solution, process, practice.*

Umumiy o'rta ta'lim maktabi(UO'TM)larida boshqaruv faoliyatini tashkil etuvchi rahbarlar nafaqat pedagogik tajribaga, balki pedagog xodimlar va o'quvchilarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish, ularni o'z faoliyatiga qiziqitirish, mehnatga ijodiy yondashish, o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish, sohalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga ko'maklashish, yangilikka va ijodkorlikka chorlash yo'nalishlarida ham zaruriy tushunchalarga ega bo'lishi zarur.

UO'TM rahbarlari boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, pedagogik jarayon ishtirokchilari (sub'ektlar) faoliyatini samarali boshqarish va muvofiqlashtirishda, shuningdek, belgilangan strategik maqsadlarga hamda ko'zlangan natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etuvchi qarorlarni qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat hamda tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshqaruv funksiyalari, metodlar va yondashuvlardan vaziyatlarga ko'ra samarali foydalana olishi zarur.

UO'TMda ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari pedagoglar va o'quvchilarning munosabatlari va faoliyatlarini muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda samarali boshqarish ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan strategik maqsadlarga erishish va raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda turli yondashuvlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Ko'rinib turibdiki, UO'TMda boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv jarayonlari samaradorligi maktab rahbarlarining o'z faoliyatida tizimli yondashuv, ijodiy yondashuv, etnik yondashuv, vaziyatli yondashuv, innovatsion yondashuv uslublaridan hamda modellashtirish, kuzatish (axborotlar to'plash), tajriba-sinov (eksperiment), sotsiologik kuzatuv (so'rovnoma, testlar, suhbat) usullaridan samarali foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar – qobiliyatli, tashabbuskor, izlanuvchan, g'ayratli, yutuqlarga intiluvchi va erishuvchi, strategik maqsadga erishishda to'la mas'uliyatni o'z zimmasiga oluvchi, iqtisodiy tanglik davrida ham samarali ishlash qobiliyatiga ega, o'z kasbining ustasi bo'lgan, turli o'zgaruvchan sharoitlarga tayyorgarligi bor, o'qituvchi va o'quvchilar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadigan hamda ularni ham boshqaruv jarayoniga jalb qila oladigan rahbarlarning ishtirokini talab qiladi [1, 103-b].

Hozirgi zamon pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasisiz boshqaruv muammolarini hal etilishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Agarda biz maktab bilan ta'lim jarayonini o'zaro bog'liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ularni boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo'lishi kerak. Bunday yondashuvni joriy etilishi boshqaruvda tasodifiy va kutilmagan holatlarni oldini olishga xizmat qiladi [2, 29-b.].

Tizimli yondashuv yo'nalishida V.P.Bespalko, Yu.V.Vasilev, Yu.A.Konarjevskiy, N.V.Kuzmina, V.S.Lazarev, M.M.Potashnik, V.A.Slasyonin, P.I.Tretyakov va boshqalar

pedagogik tadqiqotlar olib borgan bo'lib, ular o'z ishlarida quyidagi jihatlariga e'tibor qaratganlar:

1. Tizimlilik, yaxlitlilik – bunday shakldagi tizimni komponentlar, o'zaro ta'sir etuvchi qismlar va bo'g'inlarning o'zaro birikishi tashkil etadi va uning funksional vazifalarini amalga oshirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

2. Pedagogik tizimda tizimni tashkil etuvchi komponentlardan biri strategik maqsad bo'lib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Strategik maqsadga erishishda tizimning va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi.

3. Pedagogik tizim tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, uning o'zgarishi ichki ziddiyatlarga bog'liq bo'ladi.

4. Tizim ochiq bo'lganligi sababli, tashqi muhit bilan ko'pgina kommunikatsiyalar orqali bog'liq bo'lib, muhitning munosabatlari tizimning harakatlanishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

5. Axborotlarni pedagogik tizimga kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim komponentlarining o'zaro va butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqa qilish uslublari hisoblanadi.

6. Talab etilayotgan, mavjud bo'lgan va istiqbol tizimlar o'rtasidagi farqni boshqaruv jihatlarini belgilaydi.

Tadqiqotlarda ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuvning mazmun va mohiyati sub'ektlar faoliyatining strategik maqsadga yo'naltirilganligi; ob'ekt o'zaro bog'langan tashkil etuvchi qismlarning majmui ekanligi; harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro birligi; ob'ektning alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit tizimning tashkil etuvchi qismi sifatida mavjudligi; tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi kabi omillar orqali tavsiflanadi va boshqaruv faoliyatining tizimli ob'ekti sifatida ta'lim muassasasini ko'rib chiqib, uning quyidagi o'ziga xos tavsiflari keltiriladi:

- integrativ sifatlar, alohida olingan tashkil etuvchi qismlardan birortasi ham bunday sifatlariga ega emas;

- tashkil etuvchi komponentlar, ular maktabning tashkiliy qismlari hisoblanadi;

- struktura – bu tashkil etuvchi qismlar o'rtasidagi belgilangan aloqa va munosabatlar;

- tizimning va uni alohida komponentlarining funksional tavsiflari;

- ichki va tashqi muhitlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida vujudga keluvchi kommunikativ xususiyatlar [3, 33-b.].

Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, R.Sh. Ahlidinov, M.Quronov va I.Majidovlar tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, refleksiya – bu samarali fikrlashning muhim mexanizmi; yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (u vaziyat va harakatlarni baholashni, vazifalarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o'z ichiga oladi); vazifalarni hal qilishga jalb etilgan individ hamda boshqa odamlarning o'zini-o'zi tahlil qilishi, o'z holati hamda harakatlarini faol o'ylab ko'rishdan iborat jarayon. Shu sababli refleksiya (orqaga qaytish) ichidan (bir individning kechinmalari va o'ziga o'zi hisob berishi) ham, tashqaridan (kollektiv bo'lib fikrlash faoliyati va birgalikda echim izlash sifatida) ham bo'lishi mumkin.

Refleksiya xulq-atvorning ma'nolarini aniqlashga yordam beradi va fikrlashning shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan komponentlari bilan qo'shilib, samarali vaziyatlarni hal qilish chog'ida

etakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Refleksiya fikrlash jarayonida hamda xulq-atvorda bajaradigan funksiyalarining xilma-xilligi hamda u xulq-atvorni va harakatlarni tartibga solishda o'ynaydigan rolning ahamiyati refleksiyani ta'lim jarayonlarining juda kerakli unsuri deb hisoblashga asos bo'ladi [4, 237-b.].

T.N.Davidenko, M.S.Dmitrieva, V.S.Lazarev, M.M.Potashnik, P.I.Tretyakov, T.N.Shamovalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida refleksiv boshqaruv muammolari ijtimoiy predmet sifatida o'rganilgan.

Qoidaga ko'ra, refleksiv boshqaruv shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli xil omillar bilan o'zaro aloqaga kirishadi, bunda xatti-harakatlarning mazmun va mohiyati, strategik maqsadga yo'naltirilgan o'zgartiruvchi faoliyatning ehtiyojini anglash mumkin bo'ladi, chunki o'zini-o'zi chuqur anglab etish natijasida jamoada o'z o'rnini aniqlash, o'zligini isbotlash, o'zini-o'zi (harakatlarini, fe'l-atvorini) ma'qullash, o'zining ichki imkoniyatlaridan, qobiliyatidan foydalanish, o'zini-o'zi boshqarish vujudga keladi.

Vaziyatli yondashuvda boshqariluvchi ob'ektning aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning maqbul uslubi qo'llaniladi [5, 10-b.].

Maktab ta'limini rivojlantirish yo'nalishida pedagogik tizimlarni va jarayonlarni samarali boshqarish yo'llaridan biri sifatida, pedagogik adabiyotlarda ijodiy yondashuv bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. T.I.Shamova va T.M.Davidenkolarning ta'rifiga ko'ra [6], boshqaruvning ijodiy yo'nalishlari – bu strategik maqsadlarni aniqlashtirish, o'rganiladigan ob'ektni tanlash, strategik maqsadga erishish uchun eng qulay bo'lgan vositalarni aniqlash, ko'zlangan natijalarning samaradorligini belgilash ko'rsatkichlari va usullarini tanlash.

Ta'limni boshqarishda zarur hisoblangan yuqorida sanab o'tilgan yondashuvlarga yana bir yondashuvni – natijalar bo'yicha boshqaruvni qo'shish zarur. Bunday yondashuvning asosiy g'oyasi shundan iboratki, hech bir tashkilot o'zi-o'zicha hech qanday ahamiyat kasb etmaydi, ammo, u belgilangan natijalarga erishish uchun o'zaro birlashgan individlarni yoki ularning guruhlarini tartibga solishni ko'zda tutadi [7, 67].

Bu yondashuvning asosiy tushunchasi hisoblangan "natija" ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilgan [8]. Masalan, natija ro'yobga chiqarilgan strategik maqsad, bu o'z-o'zicha real va ideal ravishda bo'lishi mumkin deb ta'riflanadi.

Ta'lim muassasalarini boshqarish muammolari yo'nalishidagi manbalarni va yuqorida keltirilgan yondashuvlarni o'rganish, tahlil qilish asosida olingan natijalar strategik maqsadning umumiy tavsifi uni tashkil etuvchi jarayonlar tizimida qayd etilmaganligini ko'rsatadi. Belgilangan muammoni tadqiq etish zaruriyati strategik maqsadga erishishda boshqarish nazariyasi va amaliyotini birlashtiruvchi strategik yondashuvning qaror topishi bilan tavsiflanadi.

UO'TMda pedagogik jarayonlar samaradorligi ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar, pedagogik jarayon ishtirokchilari va boshqa mutaxassis xodimlarning (mahalla-ko'y va ota-onalarning faoliyati bilan uzviy bog'liq holda) faoliyatini samarali tashkil etishga bog'liq bo'lib, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda yangilik kiritish, ya'ni strategik maqsadga yo'naltirilgan o'zgartirishlar va yangi vazifalar belgilash jarayoniga rahbarlar, o'qituvchilar va tarbiyachilarni jalb etish, ularning fikrlarini o'rganish va takliflarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Strategik maqsadning xususiyatlariga ko'ra ularni turli xil asoslar bilan turlicha tasniflash mumkin, ya'ni bugungi kunda boshqaruv strategik maqsadini belgilashning tugallangan tasnifi

mavjud emas. SHu bilan birgalikda bizning tadqiqotlarimiz doirasida aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, UO'TMda boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda va samaradorligini ta'minlashda eng avvalo, strategik maqsadga erishish yo'nalishida belgilangan vazifalarni va kiritilayotgan o'zgartirishlarni pedagogik jarayonlarning qaysi bo'g'iniga tegishli ekanligini inobatga olish strategik maqsadga muvofiq hisoblanadi.

UO'TM faoliyatini tashkil etish va boshqarishda strategik maqsadga erishish yo'nalishida vazifalar belgilash va o'zgartirish kiritish jarayonlarini boshqaruv jarayonining tarkibiy komponentlarini harakatlanishi va strategik maqsadga yo'naltirilgan ijodiy, sifatiy o'zgarishlar jarayoni sifatida belgilash mumkin.

Bizning fikrimizcha, bu jarayonda quyidagi qator omillar boshqaruv jarayonini takomillashtirish, strategik yondashuvni amalga oshirishda boshqaruv samaradorligining asosiy shartlari hisoblanadi:

- ta'lim muassasasi jamoasi uchun mavjud muammolarni uzil-kesil hal qilish va pedagogik jarayon sub'ektlari faolligini ta'minlash strategik maqsadga erishishda samaradorlikni ta'minlashning asosiy omillari sifatida belgilanishi;

- belgilangan strategik maqsadlarga erishish yo'nalishida belgilangan vazifalar ta'lim muassasasining imkoniyatlariga mos kelishi;

- strategik maqsadga erishishda innovatsiyalarning to'la ilmiy asoslanganligi;

- innovatsion jarayonlarning ahamiyatliligi va tizimlilik;

- belgilangan strategik maqsadga erishishning ahamiyatini anglash har bir sub'ektning yuqori darajadagi mas'uliyati hamda javobgarligini ifodalashi.

UO'TMda boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlarini samaradorligini ta'minlash yo'nalishida kiritilayotgan asosiy o'zgarishlar va qo'shimcha vazifalarni belgilanishi asosiy strategik maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi va strategik yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi:

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos, bilimli va qobiliyatli bitiruvchilar modelini amalga oshirishga asoslanish (ta'lim mazmunini yangilash);

- UO'TMda boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish;

- boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv jarayonlarini oldindan loyihalashtirish, raqobatni vujudga keltiruvchi ta'limiy muhitni shakllantirish;

- ta'lim standartlariga mos ravishda, harakatdagi dasturlarga yangi rivojlantiruvchi ayrim o'zgartirishlarni kiritish;

- ko'proq samarali hisoblangan o'qitish vositalarini tanlash;

- pedagogik jamoaning kasbiy mahoratini o'sishi;

- jamoada ijtimoiy-psixologik muhitning mustahkam va ijobiy xususiyatlari;

- hamkorlikdagi faoliyatni rivojlantirishga ta'lim muassasasi jamoasining tayyorgarligi;

- ta'lim muassasasi jamoasining ilmiy va ilmiy-metodik salohiyatini oshirishga moyillik;

- umumiy strategik maqsadlarning mavjudligi va manfaatlar uyg'unlashuvi;

- ta'lim muassasasida ijobiy psixologik muhitning barqarorligi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish va pedagogik xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirishda mazkur yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etib, ular asosida boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini hamda barcha xodimlarning faoliyatini motivlashtirish, tashabbuslarni

rag'batlantirish, turli pedagogik loyihalarni ishlab chiqish va tahlil qilish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, barcha tarkibiy qism va bo'limlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ijtimoiy amaliyot va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda natijalarning samaradorligini tahlil qilishni hamkorlikda tashkil etishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для вузов.-М.: Аспект Пресс, 1996. – 103 с.
2. Турғунов С.Т. Умумий ўрта таълим муассасалари директорлари бошқарув фаолиятининг назарий асослари: Пед.ф.д...дисс.-Тошкент, 2007. 29-б
3. Турғунов С.Т. Умумий ўрта таълим муассасалари директорлари бошқарув фаолиятининг назарий асослари: Пед.ф.д...дисс.-Тошкент, 2007. 33-б
4. Миллий истиқдол ғоясини шакллантиришда ташкилий-услубий ёндашувлар/Курбонов Ш.Э. ва бошқалар.-Тошкент: Академия, 2002. – 237-б
5. Шарифхўжаев М. Менежмент:Дарслик.-Тошкент: Ўқитувчи,2001. 10-б.
6. Шамова Т.И., Давыденко Т.М. Управление образовательным процессом в адаптивной школе. – М.: Новая школа, 2001. – 384 с.
7. Санталайнен Т. Др.Управление по результатам.-М.:Про-с,1993.-С. 67.
8. Лазарев В. С. Системное развитие школы. – М., 2002. – С. 51.
9. <https://elib.buxdupi.uz/books/Modellashtirish%20darslik.pdf>

FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi Babayeva M.A

Gmail: maxfuzababaeva.15.05@gmail.com

***Annotatsiya.** Ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning psixologik-pedagogik asoslari o'qitishning ilmiyligini ta'minlash, o'quvchilarning bilishga oid faoliyatini sezilarli ravishda kuchaytirish, ularning bilim sifatini oshirishga yordam beruvchi va fikrlashning zamonaviy usulini samarali rivojlantirishga hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga imkon beruvchi didaktik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi.*

***Kalit so'zlar:** fanlararo aloqadorlik, kompetensiya, pedagogika, psixologiya, assosiativ fikrlash, qobiliyatlar, idrok, ong, dunyoqarash.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ БАЗОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА ОСНОВЕ МЕЖПРЕДМЕТНОЙ СВЯЗИ

Учитель Термезкого Университета экономики и сервиса Бабаева М.А.

Gmail: maxfuzababaeva.15.05@gmail.com

***Аннотация.** Психолого-педагогические основы реализации межпредметной связи в образовательном процессе проявляются как дидактический принцип, обеспечивающий научность обучения, значительно усиливающий познавательную деятельность учащихся, способствующий повышению качества их знаний и позволяющий эффективно развивать современный способ мышления и формировать научное мировоззрение. **Ключевые слова:** междисциплинарность,*